ADABIYOTSHUNOSLIK

UDK: 821.512.133:82.0:82-311.6. **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a76**

XARAKTER EVOLYUTSIUYASINING RUHIY-PSIXOLOGIK ASOSI

ЭВОЛЮЦИЯ ПЕРСОНАЖА ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА

CHARACTER EVOLUTION PSYCHOLOGICAL BASIS

Nasirov Azimidin Normamatovich[1]
[1]O‘zbekiston, Samarqand davlat universiteti professori,
filologiya ganlari doktori

Annotatsiya

Badiiylikning asosida xarakterlarning shakllanishi, uning turfa xil olamini talqin etish muammosi mujassamlashgan. Badiiy asardagi obrazlar olamiga nazar solish jarayonida, xarakter darajasidagi qahramonlarning shakllanishi, voqealar rivojidagi o‘rni kabi qarashlarga munosabat bildirilgan. Bu tushunchalardan anglash mumkinki, ijodkorning badiiy obraz yaratishdagi mahoratiga e’tibor qaratilib, shu jihatdan ba’zi romanlarga murojaat qiladi.

Аннотация

Проблема формирования персонажа, интерпретации его многообразного мира заложена в основу художественного произведения. В процессе вглядывания в мир образов в художественном произведении высказывались реакции на такие взгляды, как формирование характеров на уровне персонажей, их место в развитии событий. Из этих представлений можно понять, что внимание уделялось мастерству художника в создании художественного образа, и в этой связи были адресованы некоторые романы.

Abstract

The problem of the formation of characters, the interpretation of its diverse world is embodied in the basis of artistic work. In the process of looking into the world of images in the work of art, reactions were expressed to views such as the formation of characters at the character level, their place in the development of events. From these concepts, it can be understood that attention was paid to the artist's skill in creating an artistic image, and some novels were addressed in this regard.

Kalit so‘zlar: *xarakter, evolyutsiya, badiiylik, obraz, mahorat.*
Ключевые слова: *характер, эволюция, артистизм, образ, мастерство.*
Key words: *character, evolution, artistry, image, skill.*

KIRISH

Adabiyot xarakterla yaratish san’atidir. Har bir ijodkor badiiyat mezonlaridan kelib chiqib badiiy xarakterlar yaratar ekan, asar qahramonining turli xislatlarini, uning davr muhitidagi o‘rnini, ichki kechinmalarini o‘ziga xos uslubda talqin etadi. Adabiyotning asosidagi inson xarakterining shakllanishi eng avvolo, o‘z muhitida teranroq namoyon bo‘ladi. Uning barcha xislatlari, odamlar bilan muloqotida, ijtimoiy jarayonlarda yanada teranlik kasb etadi. Asardagi voqealar rivoji uning fazilatlarini, ruhiyatidagi ziddiyatlarni ochishga keng imkon beradi. Shu jihatda, o‘zbek nasrining taraqqiyotida betakror o‘ringa ega bo‘lgan, iste’dodli adib Odil Yoqubovning romanlarida xarakterlar yaratish an’anasining o‘ziga xos tamoyillarini yoki insonni anglashga keng imkon berdi. Yozuvchining zamonaviy romanlaridagi obrazlar olamiga nazar solar ekanmiz, uning turfa xil xislatlarini, sotsial jamiyatning ta’sirini, muhit qurshovidagi inson fojialalarining sabablarini badiiy talqini etakchilik qiladi. Bu talqinlarni aosida, asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy adabiyot “xarakterlar yaratish san’ati” ekanligini namoyon etish bilan, uzviy birlikda ularning turli xarakter egasi ekanligini, ammo insoniy belgilarni, fazilatlari ham yuksak darajada saqlashga intiluvchi, adolat, haqiqat tarozisi, ularning mulohazalarida namyob bo‘lishida o‘zligini kashf etgan. Shu ma’noda, insonning turfa xil olamini badiiy talqin etish, ijodkordan katta mahoratni, iste’dodni talab etishi, tabiiy holdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Badiiy xarakterlarning yaratilishi adabiyotning uzoq tarixiga borib taqaladi. Dunyo xalqari adabiyotshunoislikigining antik davridan boshlar, bugungi glaballashuv jarayonida ham ana shu xususiyat etakchilik qilib kelmoqda. M.Baxtinnning nazariy qarashlarida, badiiy xranotopning zamiridagi shaxs xarakteri, uning kechinmalari muhit va zamon kotegoriyasi asosida talqin etilganligiga e’tibor qaratilgan. Har qanday muhitning ta’siri inson xarakteriga ma’lum darajada ta’sir o‘tkazish jarayonlari tahliliy tushunchalarda qayd etilgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

O‘zbek adabiyotshunosligining etuk vakili M.Qo‘shnonovning tahliliy yondoshuvlarida ham xarakter va uning badiiy talqinida ijodkor konsepsiyasi bilan dialektik birlikda uning mahorati namoyon bo‘lishi asoslangan bo‘lsa, A.Rasulovning nazariy-tahliliy yondoshuvlari, badiiy xarakter san’atning asosiy xususiyati ekanligi tahlillar misolida asoslanganiga e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, A.Rahimov tahliliy yondoshuvlarida esa har bir davr adabiyoti o‘ziga xos xarakterlarni yaratish bilan birgalikda, inson botinidagi ziddiyatlarni yoritish asardagi voqealarning rivojlanib borishi badiiyat mezonlari asosida ko‘rsatilganligiga diqqat qilingan. Bu adabiyotshunoslarning badiiy xarakter yaratish ijodkordan katta mahoratni talab etishini asoslaganligi bilan ajralib turishi va o‘zbek romanlari misolida asoslanganligi alohida qayd etildi.

Badiiy xarakterlarning o‘ziga xos tamoyillari insonni anglash, uning davri, muhiti va hattoki tarixiy va zamonoviy makonda yanada teranlashish jarayonlari, A.Nasirovning bir qator maoqlalarida ham qayd qilinganligiga e’tibor qaratilganligini ta’kidlash joizdir. Iste’dodli adib Odil Yoqubovning har bir asarida turfa olam egasi bo‘lgan insonniy fazilatlarga, davriy muammolar zamiridagi shaxs fojialariga diqqat qilinishi davomida bir qator nazariy manbalarga tayanilganligiga ham e’tibor berildi. Xarakter adabiyotning asosiy elementi ekanligi, bu esa uning mohiyatini ochishga xizmat qilishiga tahliliy yondoshilgan, zaruriy o‘rinlarda, adabiyotshunoslarning nazariyasiga tayanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek adabiyotining etuk ijodkorlaridan biri Odil Yoqubovning turli mavzudagi asarlarida insonning murakkab xarakterini, uning betakror olamini talqin etish an’anasining badiiy ifodasini ko‘rish mumkin. Adibning “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida sotsial jamiyatning turli xislatlarini, ijtimoiy muhitning inson xarakteriga ta’sirini asosli talqin qilgan. “Shovvoz hech qachon xudojo‘y bo‘lgan emas, mana, oltmishga yakinlashayapti hamki, namoz nimaligini bilmaydi. Shu boisdan Oysuluvning keyingi istagiga ichida kulib qo‘ya qoldi, birinchi tilagi, ya’ni Toshkentga tushib, katta doktorlarga ko‘rinish orzusi esa… sababi tirikchilik, qo‘li tegmasdi. Agar qo‘li tegib, poytaxtga olib tushgudek bo‘lsa yordam beradigan yor-birodarlari topiladi. Uning frontchi do‘sti, bolalikda mana shu qishloqda oshiq o‘ynab voyaga yetgan og‘aynisi Rasul Nuriddinov o‘nlab kitoblar yozgan taniqli olim, poytaxtda boobro‘ odam. Shovvozning imoni komil, agar u yo‘qlab borgudek bo‘lsa, Rasuljon yordamini ayamaydi” [1,3-bet].

Odil Yoqubovning romanlarida badiiy xarakterlarning ifodasi, uning asardagi ijtimoiy-ma’naviy ziddiyatlar zamirida teranlik kasb etib boradi. Adibning har bir epik asari xalqimiz hayotining murakkab jarayonlaridagi hayoti bilan uzviylikda namoyon bo‘ladi.

Yozuvchining “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida voqelik tahlili davr ruhiyati talablaridan kelib chiqadi. Muallif xotira leytmotivi vositasida qahramon maslagini oydinlashtiradi. Biroq adib inson e’tiqodini uning axloqiga ziddiyat tug‘diradigan omil sifatida baholamaydi. Shu boisdan, san’atkor parchada tasvir o‘lchamini ikkinchi chiziqqa o‘tkazadi. “Oysuluvning keyingi istagi” Shorahim Shovvozning beozor kulgisi zalvoriga singib ketadi. Qishloq kishisiga xos soddalik, bag‘rikenglik va qudrat xarakter to‘laqonliligini ta’minlaydi. O‘z navbatida, iroda yo‘nalishi obraz takomilini belgilashini hisobga olsak, badiiy-mantiqiy butunlik davr kitobxoni dunyoqarashiga rahna solmaydi. Binobarin, millat tiynatiga yoyilib ketgan urf-odatlar va an’analarni yozuvchi badiiyatga singdirib yuboradi.

Adabiyotshunos M.Qo‘shjonov qayd qilganidek: “Yozuvchi tanlagan har bir epizod, har bir voqea, uning katta yoki kichikligidan qat’iy nazar, shu voqeada bevosita va bilvosita ishtirok etadigan xarakterning biror tamonini, yozuvchi niyatiga binoan, albatta, zarur tomonini ochib berishga xizmat qilishi kerak” [2, 361-bet]. Yozuvchi Odil Yoquvning romanlariga nazar tashlar ekanmiz, barcha epizodik obrazlar, asosiy qahramonning turli xarakterini ochishga va voqealar rivoji bilan uzviylikda shakllanishini kuzatamiz.

Xarakterning turli xususiyatlarini tahlil qilgan adabiyotshunos A.Rasulov esa quyidagi tushunchalarni ilgari surgan: “Xarakter mohiyatini to‘g‘ri belgilagan yozuvchigina qahramondagi ichki ziddiyatni ishonarli tasvirlay oladi” [3,186-bet], - degan nazariy qarashni ilgari suradiki, bu ham bejiz emas. Chunki har qanday xarakterning shakllanishi ijodkorning o‘ziga xos hayotni anglash, undan chiqariladigan tushunchalariga chambarchas bog‘liq bo‘liadi.

Roman poetikasini nazariy jihatdan tahlil qilgan adabiyotshunos A.Rahimov esa har qanday umumiylik zamirida inson qismati yotishi, uning xarakter xususiyati etakchilik qiliga diqqat qilgan:

“San’atkor borliqni haqqoniy tasvirlagan holda, asarda voqealar o‘zining tabiiy oqimi va mantiqi bilan rivojlangan taqdirdagina u haqiqatga maksimal yaqinlashishi mumkin” [4, 51-bet]. Asosli qayd qilinganidek, asardagi hayot voqeligining badiiy ifodasi syujetni shakllantirar ekan, bu esa voqealar rivojini yuksalib borishini, kolliziyalarni yuzaga chiqaradi hamda xarakter shakllnishiga imkon berishi beshiz emasligi asoslanagan.

Odil Yoqubovning badiiy konsepsiyasi doimo ezgulik va halollik singari tushunchalarni targ‘ib qiladi. Adolat, mehr-oqibat va diyonat tantanasiga ishonch hissi roman adabiy tadrijini tayin etadigan asosiy omillardan biri. Adib maishiy hayot, ma’naviy inqiroz, sog‘lom e’tiqod o‘rtasida tug‘ilayotgan tafovutdan jamiyat fojiasini keltirib chiqaradi. Sotsial jamiyatning turfa xil ko‘rinishlarini, uning inson hayoti va xarakteriga ta’siri, nuqtaiy nazardan talqin etilganligini anglash mumkin.

Romanda adib Yaponiyaning Gobbi sahrosida jang qilgan uch do‘st obrazini asar sujetiga singdiradiki, buning zamirida hayotiy achchiq haqiqat mujassamlashgan edi. Aynan “Gobi sahrosiyu Xingan tog‘larida“ shakllanayozgan e’tiqod kundalik hayot to‘qnashuvlarida toblanadi. Turfa ijtimoiy muhit yapon urushida yagona maqsadga intilgan uchala o‘rtoqni ham ma’nan, ham jismonan bir-biridan uzoqlashtiradi. Quroldoshlaridan farqli o‘laroq Muzaffar Farmon xudbinlik, amalparastlik va boylik qutqusiga uchadi. Shubhalar girdobida qovrilayotgan Shovvoz esa unga ishonadi. Muvaqqat yaxlitlik zamirida davr ruhiyati ziddiyatlari kengayotganligini anglab etmaslik qahramon ojizligini asoslaydi. Alohida maishiy lavhalar ham jamiyat adolatsizliklarini qamraydi, ham hukmron mafkura manfaatlarini birlashtiradi. Shu tariqa, muallif ichki va tashqi olam ziddiyatlarini tasvirni namoyon etish tarziga aylantiradi. Kelini Mehriniso to‘g‘risidagi gumonni faqat «anov zo‘ravon otaning mana bu erkatoy zurriyoti» bilan bog‘lash mantiqan to‘g‘ri emas. Chunki ijtiomoiy-tarixiy sharoit inson faoliyatiga uzviy ta’sir o‘tkazib turadi. Jamiyat yaratib bergan muhit jiddiy muammolarga zamin tug‘diradi. Qahramon esa buni ulkan fojealar sodir bo‘lgandan keyingina to‘la idrok etadi.

“Davriy va makoniy munosabatlar orasida mavjud hamkorlik badiiy qamrovini adabiyotshunoslikda xronotop sifatida talqin qiladi… Unda mushohada va aniq maqsad tafovutlanadi. Mazkur o‘rinda badiiy vaqt qayta ishlanadi, tartibga solinadi hamda badiiy kuzatishga aylanadi. Zamon, syujet, tarix harakatchanligi makoniy ifodani belgilaydi» [6,235-bet].

Shakllanish jarayoning imkoniyatdan voqelikka o‘tish davomiyligi vaqt birligining aloqadorligini asoslaydi. Ayni paytda, mavjudlik jumbog‘i va estetik g‘oya tafovuti zamon substansiyasini ifodalaydi. Vaqt oqimi uzluksizlik bilan izohlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, davriy intizomni anglash tarixiy haqiqat tamoyiliga tayanadi. Negaki, tushuncha va konstruksiyada zamon ruhiyati bo‘rtib ko‘rinadi. Shu ma’noda ruhiy tahlil asoschisi Zugmen Freyd vaqt birligi (o‘tmish, bugun, kelajak) davr ruhiyati tadrijini tavsiflaydi. Muqoyasa qiling: kecha – foydalanilgan imkoniyat, ertaga – imkoniyatdan vokelikka o‘tish nuqtasi. Shunga qaramay imkoniyatlar turfaligi ifoda qo‘llanmasida xoslanadi:

“Xuddi shu payt, salomxona eshigi ohista ochilib, ustod ko‘rindi. Egnida, odatda, saroyda kirib yuradigan zarbof to‘n o‘rniga, ko‘k-yashil movut chakmon, boshida rasadxonada va madrasada kiyadigan uchlik kora duxoba qalpoq, oyog‘i ichiga olmaxon mo‘ynasi qoplangan qo‘nji keng issiq etik, ustod ostonada to‘xtab, shogirdiga allaqanday sinovchan tikildi. Uning sal to‘lisha boshlagan novcha bo‘y-bastida, misday koramtir uzunchoq yuzida, qalin qoshlari tagidan tikilib karagan o‘ychan nigohida ham temuriylarga xos kishini o‘ziga rom etuvchi shiddat, ham qandaydir pinhoniy majruhlik bor edi” [7, 65-bet].

“Ulug‘bek xazinasi” romanida voqelik o‘lchami qisqa makoniy-zamon, davriy birlik. Ma’lumki, ijodkorning poetik iqtidorini uning g‘oyaviy mundarijaga ana shu mazmuniy butunlik orqali real hayotdan qamrab olinadigan hayotiy materialga hamda talqin darajasiga munosabat belgilaydi [8, 202-bet].

Odil Yoqubov asarlarida tafsilotlar hajmi hamda uzviy aloqadorligi voqelikni badiiy tadqiq etish miqyosi va adib fitratida tiklanadigan nazariy konsepsiyani ilgari suradi. Bu konseptual qarashlar qo‘yilgan masala va uning zalvorini ikir-chikirlar bilan qamrab olishga zamin hozirlaydi. Aniqrog‘i, ma’no takomili san’atkor olamidan qahramon nutqiga ko‘chadi [9,16-bet]. Buning samarasi o‘laroq mono-dialogik ong ijodkor tamoyillarini boshqaradigan shakliy-uslubiy izlanishlar ko‘lamini ta’minlaydigan bosh atribut darajasiga ko‘tariladi [10, 73-bet].

ADABIYOTSHUNOSLIK

Darhaqiqat, Odil Yoqubov romanlarida inson konsepsiyasining badiiy ifodasida o‘ziga xosliklar haqidagi qarashlar ham bayon etilgan [11,517-bet]. Etakchi poetik atribut yozuvchi ijodiy niyati bilan erkin birikib, tasviriy yaxlitlikni jonlantiradi [12,150-bet].

Qayd qilingan tushunchalarga asoslangan holda, nutqiy faoliyat matnlararo rishtalarni bir-biriga bog‘lab turadigan ichki omildir. Ikkinchidan, qahramon bayoni hayotni asl holicha bo‘yoq-bezaksiz ifodalash imkonini tug‘diradi. Uchinchidan, nutqiy rang-baranglik badiiy voqelikka turfa yondashuvga yordamlashadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat va millat talab-ehtiyojlarini estetik nuqtai-nazardan to‘g‘ri baholash hamda umumlashtirishga turtki beradi. To‘rtinchidan, personajning ruhiy dunyosi shaxsiy kuzatuvlarga aylanib, konsepsiya ichidagi konsepsiyani yaratadi. Beshinchidan, ichki va tashqi monolog mohiyatan bir-birini to‘ldiradigan, izohlaydigan hamda tartibga soladigan yaxlit ijodiy uslub birligini ifodalaydi. Oltinchidan, dialogik ong ifoda tarzini belgilash bilan birga tasvirning aniqligi, ixchamligi, qisqaligi va yorqinligini xolis gavdalantirish vositasidir.

Nutqni ifodalash tarzi o‘zida ham tashqi muhitning shamoyilini, ham qahramonning faoliyat ko‘lamini, ham milliy estetik qadriyatlarini aks ettiradi. To‘g‘rirog‘i, jo‘g‘rofiy kenglik shaxsiy fe’l-atvorni baholash mezoni uyg‘unligi bilan birgalikda tasvir qutblarini birlashtirib turadi. Shu o‘rinda M.M.Baxtinning badiiy makon va badiiy zamon cheklanganligi haqidagi ta’limoti hayotiy asosga ega ekanligi ayonlashadi.

Millat romaniy tafakkur madaniyati ufqlarini jiddiy yangilashga intilgan Odil Yoqubov ijodiy tajribasi rang-barangdir. Adib har bir asarida o‘ziga yangi so‘qmoqlar ochishga intilayotganligi, mavjud an’analar asosida xos badiiy ohanggini yaratishga intilishlari bilan alohidalik kasb etadi. Binobarin, odamzod borlig‘i tadqiqotida keng epik imkoniyatlarga ega “yirik shakl” (M.M.Baxtin) davr ruhiyati qamrovi jihatidan janriy o‘ziga xoslik kasb etadi [5, 46-bet].

Badiiy mazmun yaxlitligi poetik unsurlar tabiatidan o‘sib chiqadi. Badiiy asar kompozitsiyasi shaklni hosil qiluvchi elementgina emas, asosiy maqsadni ro‘yobga chiqaruvchi, undagi obrazlar, barcha qism va vositalarni garmonik uyushtiruvchi strukturadir. Kompozitsiya mazmunning namoyon bo‘lish shakli, yashash tarzidir. Badiiy materialning masshtabi va me’yori yozuvchining mahorati va dunyoqarashi bilan bog‘liq.

Darhaqiqat, badiiy kompozitsiya asar uyushganlik darajasi, butun va qismlar orasidagi mantiqiy aloqa, muallif konsepsiyasi namoyon bo‘lish tarzini markazlashtiradigan istiloh hisoblanadi. Unda obrazlararo intizom, qismatlar echimi, syujet chiziqlari mutanosibligi, qahramon onggi o‘sish darajasi hamda xarakter tadriji badiiy butunlik kasb etadi. Shu ma’noda, san’atkor niyatini ro‘yobga chiqarish shakllari poetik xususiyatida yaxlitlikka yig‘iladigan ichki komponentlararo tizimni asoslab boradi.

“Adolat manzili” romani poetik tarhini ko‘p tarmoqlilik hamda yo‘nalish rang-barangligi intizomiga bo‘ysundiradi. Badiiy vaqt birligi kengayishi hodisot sabab va oqibatlarini o‘zaro bog‘liqlikda teran tadqiq etishga zamin hozirlaydi. Xarakter ijodiy tadrijiga har xil tarmoqdan yondashuv (mifologik-diniy-ma’rifiy-falsafiy) inson borlig‘ida badiiy va ijtimoiy mohiyat qorishib ketishiga olib keladi. Asar kompozitsiyasi ikki muhim halqa – qahramon shaxsiyati va davr ruhiyati ma’naviy-axloqiy to‘qnashuvida namoyon bo‘ladi.

Demak, taqdirlararo o‘ziga xoslik va jamiyat hodisalari yonma-yon harakatlanadigan to‘ldiruvchi komponentlarni izohlaydi. Katta umuminsoniy masalalar (ma’naviy tanazzul, milliy o‘zlikni anglash, iqtisodiy taqchillik va shafqatsiz qatag‘on) tahlili roman takomili badiiy mundarijasini tayin etadi. Muallif g‘oyaviy tayanch markaziga birdaniga o‘tmaydi. Asta-sekinlik bilan kitobxonni psixologik vaziyatga tayyorlagan ijodkor davr ruhiyati tasvirini qahramonlar ziddiyatida maromiga etkazadi.

Avvalo, shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir davrda inkishof etilgan badiiy talqin olam va odamni yangicha idrok etib, o‘z dunyosini bunyod etayotgan yangi ijodiy-mantiqiy aqidani ilgari suradi. Zotan, badiiy mohiyat o‘ziga xosligi, birinchi navbatda, mushohadaning ong hamda tuyg‘uda qayta ijodiy shakllantirilgan tizimiga asoslanadi. Chunki xarakter shaxsiga singdirilgan qahramon konsepsiyasida davr va jamiyatning butun borlig‘i – taraqqiyoti, zamon evrilishlari silsilasida tug‘ilayotgan ziddiyatlar, real muammolar, negativ holatlar o‘z ifodasini topadi.

Qolaversa, sof adabiyotning gumanistik mohiyati va yo‘nalishi, avvalo, insonni badiiy aks ettiruvchi falsafiy-estetik prinsiplarda, shaxsning o‘tmishi, bugungi va kelajak hayotiga nisbatan

nuqtai nazarida, maqsad va intilishlarining ruhiy-intellektual mundarijasida, jamiyataro tutgan mavqeida, odamlar bilan muloqot-munosabatlarida o‘z tajassumini topadi. Aynan shu omillar mushtarakligi haqiqiy ijodkor shaxsiyatida jamiyat va olam munosabatlari badiiy talqiniga aylanadi.

Odil Yoqubov olamning go‘zalligi, insoniyatning shu go‘zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to‘qimalariga yoyilib ketgan milliy ma’naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo‘nalishi adib dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo‘lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo‘lsin, diyonat, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. To‘g‘rirog‘i, sog‘lom e’tiqod tadriji qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi.

Tasvirdagi aniqlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchliligi bilan izohlanadi. O‘z navbatida yozuvchi g‘oyaviy munosabati xalq ruhiyati, millat istiqbolini atroflicha tahlil qilish vositasida oydinlashadi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan mantiqiy yaxlitlik kasb etadi. Aslida ijodiy mantiqning asl mazmuni ham millat irodasi va maqsad-intilishlarini chuqur o‘zlashtirishga borib taqaladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Badiiy adabiyotning asosini xarakterlarning badiiy ifodasi shakllantirar ekan, bu jarayonga har bir so‘z san’atkori o‘z diqqatini qaratish bilan birgalikda, hayot haqiqatining badiiy ifodasidan kelib chiqqan holda mukammal, murakkab xarakterlar yaratish yo‘lini tanlaydi. Mazkur tushuncha, xarakterli belgisini axtarish va unga urg‘u berish mushtarakligidan oziqlanadi.

Odil Yoqubov romanlarida shaxs psixologiyasini jamiyat, tabiat hodisalari bilan omuxta badiiy-psixologik tadqiq etish tamoyili tadriji ko‘zga tashlanadi. “Inson ongida jonlanadigan har qanday in’ikos, garchand, moddiylikning to‘liq mazmunini qamrab olsa-da, baribir aniqlikda asliyat darajasiga ko‘tarila olmaydi, ayni paytda, “tasvir”, “nusxa” imkon qadar ob’ektiv voqelikka yaqinlashishga intiladi. Ong predmetning tub mohiyati, haqqoniy qiyofasini yoritishga qodir” [9,136-bet].

Darhaqiqat, badiiy talqin doimiy tarzda inson dunyoqarashida namoyon bo‘lish tarzi sinoatlari kashfiyotida, ko‘ngil izhori va ruh falsafasi ma’nolarini anglashda mudom hissiy bosim ustuvorligini bosqichma-bosqich oshirib boradi. Adibning badiiy asarlaridagi bevosita, zamonaviy romanlari qaysi davrning mahsuli bo‘lishidan qat’iy nazar, undagi obrazlar olami, ularning xarakter shakllanishi, ruhiy-botiniy olamidagi ziddiytlar haqqoniy ifodasini topganligidan dalolat beradi.

Odil Yoquboning turli mavzudagi asarlarini bugungi kun badiiyat mezonlari asosida tahlil qilish, undan asosli xulosalar chiqarish, nazariy muammlolarini badiiiyatdagi o‘rnini anglash va tahliliy yondoshish natijasida, yetuk va o‘lmas asarlar yarata olganligini anglash imkonini berishini alohida qayd etmoq zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yoqubov O. Oqqushlar oppoq qushlar. Roman. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1988. – B. 380.

2.Қўшжанов М. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. – Т.: “Шарқ”, 2018. – 712 бет.

3.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Т.: “Шарқ”, 2007. – 336 бет.

4.Раҳимов А. Роман санъати. Мақолалар тўплами. – Фарғона, “Фарғона” нашри, 2015. – 96 бет.

5.Бахтин М.М. Вапросы литературы и эстетики. – Москва, Художестенная литературы, 1975. – 504 стр.

6.Nasirov A. *Odıl Yoqubovnıng “Ulug‘bek xazinasi” romanida badiiy obraz yaratish.* Uluslararası turk lençe arastırmaları dergısıç Aralık-Dekember-Dekabr 2020 sayı-Volume-homer 4 – 2. 200-205-betlar.

7.Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi.Roman. –T.: «Sharq». 1994. – 276 бет.

8.Nasirov A.N., Djurakulova E. Novel Thinking And Artistic Conflict In Shoyim Butayev’s Novels. European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 03, 2020.

9.Nasirov A.N. *Feature of ymbolic interpretation.* International Jurnal on Orange Technologies // Indoneziya. 2021 / Mart. 21. 71-76-betlar. https: // jurnals.researchparks.org/index. Php / IJOT /issue / view / 63 Impact Faktor-7.15.

10.Nasirov A.N. Turk adabiyotinin gelisiminde devlet rakamlarinin veri (Mustafa Kamal Ataturknun faaliyateti ornegi uzerinden). “In memory of the 142th anniversary of his birth” 3rd international Ataturk symposium. 19-may, 2023. Azerbaijan Attaturk Center, Baku, 10-15-betlar.

ADABIYOTSHUNOSLIK

11.Насиров А.Н. *Свойства художественного языка в историческом романе.* Евразийский союз ученых (ЕСУ). Международный научно-исследовательский журнал. №7 (76) / 2020. 3 часть. Impact Faktor 2020: 6.05. ISSN 2411-6467. 33-35-стр.

12.Nasirov A.N. *Artistic chronotope interpretion in Odil Yakubov's novels.* Academicia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.